Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy turistlar uchun kreativ va jozibador turizm mahsulotlarini shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari hamda samarali yo‘llari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida turizm mahsulotining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion g‘oyalar, madaniy meros elementlari, mahalliy tajriba va interaktiv xizmatlarning o‘rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, xorijiy turistlarning ehtiyojlari va xulq-atvorini hisobga olgan holda individual va tematik turizm mahsulotlarini yaratish mexanizmlari yoritiladi. Maqolada raqamli texnologiyalar, kreativ marketing va xizmatlar dizaynidan foydalanish xorijiy bozor uchun turizm mahsulotining jozibadorligini oshirishda muhim omil ekani asoslanadi. Tadqiqot natijalari turizm sohasida faoliyat yurituvchi subyektlar hamda ilmiy izlanish olib borayotgan mutaxassislar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: kreativ turizm, jozibador turizm mahsuloti, turistik ehtiyoj, autentiklik, ekologik barqarorlik, innovatsion yondashuv, turistik xizmatlar, raqobatbardoshlik.

Abstract. This article analyzes modern approaches and effective methods for developing creative and attractive tourism products for international tourists. The study substantiates the role of innovative ideas, cultural heritage elements, local experiences, and interactive services in enhancing the competitiveness of tourism products. It also explores mechanisms for designing individual and thematic tourism products based on the needs and behavioral patterns of foreign tourists. The paper highlights the importance of digital technologies, creative marketing, and service design in increasing the attractiveness of tourism products in the international market. The research findings have practical significance for tourism industry stakeholders and academic researchers.

Keywords: creative tourism, attractive tourism product, tourist needs, authenticity, environmental sustainability, innovative approach, tourism services, competitiveness.

Аннотация. В данной статье анализируются современные подходы и эффективные методы формирования креативных и привлекательных туристических продуктов для иностранных туристов. В ходе исследования обоснована роль инновационных идей, элементов культурного наследия, локального опыта и интерактивных услуг в повышении конкурентоспособности туристического продукта. Также освещаются механизмы создания индивидуальных и тематических туристических продуктов с учётом потребностей и поведенческих особенностей иностранных туристов. В статье научно обосновывается значимость использования цифровых технологий, креативного маркетинга и дизайна услуг для повышения привлекательности туристического продукта на международном рынке. Результаты исследования имеют практическое значение для субъектов туристической отрасли и исследователей.

Ключевые слова: креативный туризм, привлекательный туристический продукт, туристические потребности, аутентичность, экологическая устойчивость, инновационный подход, туристические услуги, конкурентоспособность.

KIRISH

Zamonaviy global turizm bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda xorijiy turistlarni jalb etishda an‘anaviy turizm mahsulotlari bilan cheklanib qolish yetarli samara bermaydi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, standart ekskursiya marshrutlari, tarixiy yodgorliklarga tashriflar yoki plyaj dam olishlari

kabi an'anaviy turizm shakllari turistlar ehtiyojlarining barchasini qondira olmaydi. XXI asrda turistlar nafaqat tomoshabin, balki faol ishtirokchi sifatida yangicha tajribalarga ega bo'lishga, mahalliy aholi bilan muloqot qilishga va ularning madaniy merosi hamda hayot tarziga yaqindan qiziqishga intilishmoqda. Shu bois turizm industriyasida kreativ va jozibador mahsulotlar yaratish ustuvor yo'nalishga aylanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi paytda turizm ta'rifiga turli xil yondashuvlar mavjud bo'lib, jumladan, V.I. Azar bu tushunchani "turizmga alohida bir davlat milliy xo'jaligi chegaralarida yoki jahon xo'jaligi miqyosidagi muayyan unsurlar o'rtasidagi turli aloqalari mavjud bo'lgan yirik iqtisodiy tizim sifatida qarash lozim", deb ta'riflaydi. Azar turizmni alohida sektor sifatida emas, balki yirik iqtisodiy tizim sifatida baholaydi. V.I. Azar turizmga faqat iste'molchi nuqtayi nazaridan emas, balki yirik iqtisodiy tizim sifatida yondashadi. Ushbu tizim milliy va xalqaro darajadagi iqtisodiy, xizmat ko'rsatuvchi va ijtimoiy unsurlar o'rtasidagi bog'liqlik asosida shakllanadi. Turizm kompleks iqtisodiy mexanizm sifatida mamlakat iqtisodiyotining qator tarmoqlariga ta'sir qiluvchi strategik soha sifatida e'tirof etiladi.

N.I. Kabushkin ham turizmni "insonning sayohat davomida yuzaga keladigan munosabatlar majmui va o'zaro aloqa hamda hodisalar butunligi" sifatida ta'riflab, yuqorida keltirilgan fikrga yaqin ta'rif beradi. Kabushkin turizmni faqat harakat, sayohat yoki xizmatlar to'plami deb emas, balki insonlar o'rtasida shakllanadigan ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy munosabatlar majmui sifatida ta'riflaydi. N.I. Kabushkin turizmni insonning sayohat davomida kirishadigan munosabatlar va hodisalar tizimi sifatida baholaydi. U turizm — bu faqat geografik harakat emas, balki ijtimoiy, madaniy va shaxsiy munosabatlar jarayoni ekanligini ta'kidlaydi. Uning yondashuvi turizmni shaxsning tajriba, muloqot va rivojlanish maydoni sifatida ko'radi.

Yangi O'zbekistonda turizm sohasini innovatsion rivojlantirish ilmiy maktabining asoschisi I.S. Tuxliyev o'z tadqiqot ishlarida "turizm bu turistlar tomonidan amalga oshiriluvchi, aniq belgilangan turistik maqsadlarga ega ommaviy sayohatlar turi bo'lib, turistning faoliyati va bunday sayohatlarni uyushtirish hamda amalga oshirish bo'yicha maxsus xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlardan iborat. Bunday maxsus xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyati, avvalambor, turistik firmalar, mehmonxonalar va shu xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan turli xil boshqa tarmoqlar tomonidan amalga oshiriladi", deya e'tirof etadi. Muallif ta'rifining boshida turizm aniq maqsadli, turistlar tomonidan amalga oshiriladigan va ommaviy harakat shakli sifatida ko'rsatiladi. Ya'ni, bu faqat bir shaxsning shaxsiy sayohati emas, balki turistik faoliyatning tashkil etilgan va yo'naltirilgan shakli ekanligini ifodalaydi.

I.S. Tuxliyev turizmga maqsadli, ommaviy, tashkil etilgan sayohatlar tizimi sifatida, turistik faoliyat va uni qo'llab-quvvatlovchi xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarning kompleks tizimi sifatida hamda turizmning infratuzilmaviy, iqtisodiy va tashkilotchilik mexanizmlariga asoslangan soha sifatida yondashadi. Bu ta'rif turizmni nafaqat inson harakati, balki bozor munosabatlari, xizmat ko'rsatish sifati va innovatsion infratuzilma bilan bog'liq iqtisodiy tizim sifatida tushunishga yordam beradi.

B.X. Turayev "Организационно-экономические механизмы регионального туризма" nomli monografiyasida turizm tushunchasini bizning mamlakatimizda anchadan buyon sport va sog'liqni mustahkamlash tushunchasi bilan birga idrok qilingani, ya'ni turizmni daromad keltiruvchi iqtisodiyotning tarmog'i sifatida qaralmaganligini ta'kidlaydi va bugungi sharoitda turizm nafaqat milliy iqtisodiyotning to'laqonli tarmoqlararo majmuasi bo'lishi lozim, balki ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining salmoqli elementlaridan biri bo'lishi kerak, deb hisoblaydi.

B.Sh. Safarov nomzodlik dissertatsiyasida hozirgi paytda turizmga uch xil umumiy ta'rif berilayotganini qayd etadi. Birinchisi — tor ma'nodagi ta'rif bo'lib, unga binoan bu tushuncha turistik korxonalar faoliyati bilan chegaralanadi. Ikkinchisi — bir yoqlama iste'molchiga qaratilgan bo'lib, bu ta'rifga asosan turizm faoliyati doimiy istiqomat qilish joyidan tashqarida va ishlab chiqarish tashvishlaridan xoli holatda xizmat va tovarlarni iste'mol qilish jarayoni sifatida tushuniladi. Uchinchisiga ko'ra esa, turizm tushunchasi jamiyatda insonlarning istiqomat qilish joyidan tashqarida bo'sh vaqtini o'tkazishi va buning uchun zarur bo'lgan xizmat va tovarlar turlarini yaratish shartlari bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar majmuasini ifodalaydi.

M.T. Alimovning doktorlik dissertatsiyasida "turizm — bu elementlari o'zaro poliyerarxik aloqalar va munosabatlar tizimi orqali bog'langan, pirovard natijalarga erishishda bevosita tashrif buyuruvchilarning ishtiroki bilan tavsiflanadigan, tarmoqlararo majmuaning ko'p qirrali funksional tuzilmasi negizida shakllanadigan hamda tashqi muhit o'zgarishiga yuqori ta'sirchanlikka ega bo'lgan ochiq murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir", degan fikr berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda iqtisodiy-ijtimoiy va geografik tahlil, tizimli va qiyosiy tahlil usullari, shuningdek, empirik tadqiqot usuli sifatida so'rovnoma (anketa) usuli qo'llanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Kreativ turizm — bu faqat tomoshabin emas, balki faol qatnashchi sifatida mahalliy madaniyat, tarix, hunarmandchilik va zamonaviy innovatsiya jarayonlarida ishtirok etish imkonini beruvchi turizm turi hisoblanadi. Xususan, YUNESKO va Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO)ning ta'kidlashicha, kreativ turizm mahalliy jamoalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilib, ularning madaniy merosini saqlab qolish hamda zamonaviy innovatsiyalar bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Bu turizm turida mehmonlar nafaqat ko'rish, balki amaliy mashg'ulotlarda qatnashish, milliy taomlar tayyorlashni o'rganish, mahalliy hunarmandchilik buyumlarini yasashda ishtirok etish, milliy raqs yoki musiqa an'analariga qo'shilish kabi jarayonlarda qatnashish orqali boy madaniy tajribaga ega bo'ladilar.


Kreativ turizmning afzalliklaridan biri — u turistlar uchun individual va shaxsiy tajribani yarata olishidadir. Bu esa, o'z navbatida, turistlarning hududga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning qayta tashrif buyurish ehtimolini kuchaytiradi. Bundan tashqari, kreativ turizm mahalliy aholi ishtirokini ta'minlab, ular uchun yangi ish o'rinlari va daromad manbalarini yaratadi. Turizm bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlashda kreativ turizm yo'nalishlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega, chunki u zamonaviy talablarga javob beruvchi innovatsion xizmat va mahsulotlar taklifini yo'lga qo'yish imkoniyatini yaratadi.

Shu bois, ko'plab mamlakatlar, xususan, Yevropa va Osiyo davlatlari turizm siyosatlarida kreativ turizm dasturlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishmoqda. Masalan, Fransiya, Yaponiya va Koreya kabi mamlakatlarda mahalliy madaniyat va hunarmandchilik an'analarini interaktiv ravishda taqdim etish, mahalliy jamoalar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "cultural immersion" dasturlari yuqori samara ko'rsatmoqda.

Shu tarzda, kreativ turizm nafaqat turistlar uchun o'ziga xos tajriba yaratish, balki turizm sohasining barqaror va innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladigan muhim strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kreativ turizm atamasi ilk bor 2000-yillarda YUNESKO tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u mahalliy aholi va turistlar o'rtasidagi interaktiv muloqotga asoslanadi.


Turistik mahsulotning jozibadorligi ikki omilga bog'liq (1-rasm):



1-rasm. Jozibador turistik mahsulotni shakllantirish omillari

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, turistik mahsulotlarning jozibadorligi turistning ehtiyojlarini qondirish (emotsiya, madaniy tajriba, vaqtdan mazmunli foydalanish) va mehmon mamlakatning raqobatbardosh resurslaridan samarali foydalanish kabi ikki omilning uyg'unligiga bog'liq.

Xorijiy turistlarning ehtiyojlari va ularning bozor segmentatsiyasi tahlillariga ko'ra, xorijiy turistlarning kreativ mahsulotga qo'yadigan asosiy talablari (2-rasm):



2-rasm. Xorijiy turistlarning kreativ mahsulotga qo'yadigan asosiy talablari

Turizm korxonalari faoliyatidagi eng muhim bosqichlardan biri — yangi turistik mahsulot yaratish va uni bozorga olib chiqish hisoblanadi. Chunki mavjud mahsulot vaqt o'tishi bilan qadrsizlanadi va unga bo'lgan talab kamayadi. Shuning uchun uning o'rmini bozorda yetakchilikni saqlab qolishga yordam beradigan yangi mahsulot egallashi kerak.


Turistik mahsulotni ishlab chiqish va turlarni shakllantirish, asosiy va qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatish — bularning barchasi turistik xizmat ko'rsatish texnologiyasini tashkil qiladi. Bu esa, o'z navbatida, turistik ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan aniq xizmat turini yaratish jarayonidir. Turlarni va mahsulotni ishlab chiqish jarayoni turoperatorlar tomonidan amalga oshiriladi. Turistik mahsulot qanchalik jozibador bo'lsa, u shunchalik turistik korxonaning daromadliliigi va barqarorligini ta'minlaydi.

Jozibador turistik mahsulot yaratish har qanday marketing strategiyasini amalga oshirishdagi asosiy omil hisoblanadi. Bu jarayon turizm korxonasidagi ishlab chiqarish bilan bog'liq faoliyatga bevosita ta'sir etadi. Mahsulot siyosati esa ishlab chiqarish va sotuv jarayonlari o'rtasida mutanosib va o'ylangan qarorlarni qabul qilishni talab qiladi.

Turistik mahsulot yaratish jarayoni uning iste'molchi uchun qadri, xususiyatlari va eng jozibali tomonlarini aniqlashdan boshlanadi.

Turizm sohasida turistik mahsulotni shakllantirish va undan foydalanish jarayonlari bir-biridan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Turistik firmadan turistik mahsulot sotib olgan mijoz uning haqini sayohati davomida xizmatlardan foydalanish orqali "to'laydi".

Yangi yo'nalishlardagi turistik mahsulotni yaratish quyidagi bosqichlar orqali amalga oshiriladi (3-rasm):



3-rasm. Yangi yo'nalishlardagi turistik mahsulotini yaratishning asosiy bosqichlari



Tur mahsulotga oid g'oyalarni ishlab chiqish bosqichida turistik mahsulotning sifat va miqdor jihatdan imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bunda turistik bozordagi talab, moda, iste'molchi afzalliklari muntazam ravishda o'rganilib, ulardagi o'zgarishlarga mos ravishda ish yuritiladi.

Tur mahsulot konsepsiyasini shakllantirish bosqichida turistik mahsulotni yaratish uchun uning maqsadli bozordagi talablarga, moddiy-texnikaviy va moliyaviy imkoniyatlarga mos jihatlari aniqlanadi. Masalan, sayohat yo'nalishi, dastur, turizm turi, xizmatlar to'plami va ularning darajasi belgilab olinadi.

Sinov sotuv jarayonini tashkil etish bosqichida yaratilgan turistik mahsulot kichik partiyada bozorda taklif etilib, uning omma orasidagi qabul qilinishi, jozibadorligi va mavjud kamchiliklari aniqlanadi.

Mahsulotni ommaviy tijoratlashtirish bosqichida esa turistik mahsulotning bozorda keng miqyosda sotuvi tashkil etiladi.

Turistik mahsulotni yaratish — bu bir nechta bosqichlardan iborat bo'lgan murakkab va tizimli jarayon bo'lib, u chuqur tahlil hamda aniq shartlar asosida amalga oshiriladi:

- bozordagi holatni o'rganish va turli turdagi turistik mahsulotlarga nisbatan iste'molchi ehtiyojini aniqlash maqsadida marketing tadqiqotlarini olib borish;
- turistik mahsulotning turlari, shakllari va unga kiruvchi elementlarni tahlil qilish, shuningdek, uni ishlab chiqish va bozorga chiqarish uchun zarur bo'lgan haqiqiy xarajatlarni baholash;
- turistik mahsulotni ishlab chiqishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini tahlil qilish, bunda undan keladigan daromad va ehtimoliy xarajatlar asos qilib olinadi;
- bozor, talab va taklifni chuqur tahlil qilish asosida turistik mahsulotlarni ishlab chiqish hamda uning iqtisodiy samaradorligi va narx siyosati yuzasidan asosli hisob-kitoblar tayyorlash;
- yaratilgan turistik xizmat va mahsulotni tajriba tarzida baholash, ya'ni sinov turlarini amalga oshirish, mahsulotni taqdim etish va reklama faoliyatini olib borish, shuningdek, olingan natijalarni tahlil qilish.

Bugungi globallashuv va raqobat sharoitida turizm sohasidagi muvaffaqiyat turizm mahsulotlarining nafaqat standart, balki kreativ va jozibador yo'nalishda shakllantirilishiga bevosita bog'liq. Xorijiy turistlar ehtiyojlari va qiziqishlarini qondirish, ularga boy madaniy, tarixiy va zamonaviy taassurotlar ulashish maqsadida kreativ turizm mahsulotlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kreativ turizm — bu sayyohlarni faol ishtirokka jalb qiluvchi, mahalliy madaniyat, hunarmandchilik, gastronomiya, san'at va innovatsiyalarga asoslangan turizm turidir. Bu yondashuv an'anaviy "tomoshabin" turizmdan farqli ravishda turistni jarayonning markaziga qo'yadi va unga shaxsiy tajriba orttirish imkonini beradi. Masalan, turistlar o'zlari keramika buyumlari yasashda, milliy taom tayyorlashda yoki xalq o'yinlarida ishtirok etishlari mumkin.

Jozibadorlikni oshirishda turizm mahsulotining tuzilishi, dizayn konsepsiyasi, uning raqamli muhitdagi taqdimoti, vizual va emotsional ta'sirchanlik darajasi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Zero, zamonaviy turistlar ma'lumotni tezkor qabul qilish, interaktiv va estetik jihatdan boy tajribaga ega bo'lishni kutadilar. Shu sababli turizm mahsulotini ishlab chiqishda faqat xizmat mazmuniga emas, balki uning taqdim etish uslubiga ham jiddiy e'tibor qaratish talab etiladi. Mahsulot turistda ijobiy psixologik taassurot qoldirishi, qiziqish uyg'otishi va aloqadorlik hissini shakllantirishi lozim.

Turizm mahsuloti o'z ichiga nafaqat ma'lum bir marshrut yoki tadbirni, balki mahalliy madaniyatni aks ettiruvchi elementlarni — an'analar, til, me'morchilik, milliy liboslar va hunarmandchilik namunalarini ham qamrab olishi kerak. Bu esa mahsulotga asllik va originallik bag'ishlab, uni boshqa hududlar taklifidan ajratib turadi. Shuningdek, kreativlik va interaktivlik komponentlari, ya'ni turistning faol ishtirokini rag'batlantiruvchi tajribaviy elementlar jozibadorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Bundan tashqari, raqamli platformalarda (veb-saytlar, mobil ilovalar, AR/VR vositalari) mahsulotning zamonaviy, o'ziga tortadigan va vizual jihatdan jozibali formatda taqdim etilishi xorijiy turistlarni jalb qilishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Innovatsion texnologiyalar orqali mahsulotning targ'iboti va sotuvi yangi bosqichga ko'tarilib, foydalanuvchi bilan muloqot individuallashtiriladi, bu esa ularning qoniqish darajasini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, jozibador turizm mahsulotini yaratish jarayonida uning vizual-estetik sifati, madaniy aslligi va interaktiv xususiyatlari o'zaro uyg'un holda namoyon bo'lishi turistik xizmatlarning xalqaro bozorda raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omillardandir. Shu nuqtayi nazardan, xorijiy turistlar uchun quyidagi yo'nalishlarda mahsulotlar shakllantirilishi maqsadga muvofiq:

- interaktiv madaniy master-klasslar — milliy raqslar, hunarmandchilik va san'at turlarida ishtirok etish;
- tematik gastronomik turlar — mahalliy oshxona sirlarini o'rganish va degustatsiya tadbirlari;
- qishloq turizmi asosidagi kreativ turlar — mahalliy aholi turmush tarzida ishtirok etish, ekologik fermalarda faoliyat olib borish;
- festival va tadbirlar — hududiy xususiyatlarga asoslangan kreativ va milliy festivallarni xalqaro miqyosda tashkil etish.

Kreativ turizm mahsulotlarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar, jumladan, AR/VR texnologiyalaridan foydalanish, raqamli kontent yaratish, mobil ilovalar orqali navigatsiya va bron qilish imkoniyatlari turistlarga

qulaylik yaratib, ularning qoniqish darajasini oshiradi. Bunday mahsulotlar orqali nafaqat xizmat ko'rsatish, balki mamlakatning madaniy brendi va turistik imidji ham mustahkamlanadi.

Xorijiy turistlar uchun kreativ va jozibador turizm mahsulotlarini shakllantirish jarayoni — bu bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan, innovatsion yondashuvni talab qiluvchi murakkab va tahliliy jarayondir. U quyidagi muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- marketing tadqiqotlari asosida xorijiy turistlarning ehtiyoj va qiziqishlarini aniqlash;
- turizm mahsulotining mazmun-mohiyatini belgilash va uni kreativ yondashuv asosida shakllantirish;
- mahsulotning iqtisodiy samaradorligini baholash;
- bozordagi mavjud takliflar bilan taqqoslash orqali raqobatbardosh yechimlar ishlab chiqish;
- sinov asosida joriy etish, ya'ni pilot turlarni tashkil etish va mijoz fikrlarini (feedback) yig'ish.

Shunday qilib, xorijiy turistlar uchun kreativ va jozibador turizm mahsulotlarini shakllantirish nafaqat iqtisodiy foyda manbai, balki milliy madaniyatni xalqaro maydonda targ'ib qilishning samarali vositasidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston hududlarida turizm sohasini diversifikatsiya qilish, hududiy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish bugungi kunda strategik ahamiyatga ega vazifalardan biridir. Aynan kreativ turizm turizmning innovatsion yo'nalishi sifatida hududlarning mavjud madaniy merosini zamonaviy ijodiy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, mahalliy aholi ishtirokini kuchaytirish va qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar yaratish imkonini beradi. Shu bois, hududlarning kreativ turizmga ixtisoslashuv darajasini kompleks baholash va rivojlantirish omillarini tizimlashtirish nazariy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Amaldagi tadqiqotlar va xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kreativ turizmning samarali rivojlanishi institutsional muhit, infratuzilma, jamoa ishtirokchilari, raqamli texnologiyalar, klasterlashuv va barqarorlik kabi ko'p omillarning o'zaro bog'liq hamkorligiga tayanadi. Biroq ushbu omillarning har biri alohida o'rganilgan bo'lib, ularning integratsiyalashgan holda yagona tizim sifatida tahlil qilinishi yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli, hududlarning kreativ turizmga ixtisoslashuvi darajasini oshiruvchi omillarni bir butun model sifatida shakllantirish fan uchun ham, amaliyot uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, kreativ turizm mahalliy aholi uchun yangi daromad manbalari, ijodiy faoliyat uchun maydon, yoshlar va xunarmandlar uchun startap imkoniyatlari yaratishi bilan ahamiyatlidir. Hududlar o'rtasida raqobat kuchayib borayotgan sharoitda kreativ turizm bo'yicha ixtisoslashuv darajasini aniqlash, tarmoqni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish uchun tizimlashgan modelning mavjudligi nafaqat zarur, balki strategik talab sifatida maydonga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Азар, В.И., & Туманов, С.Ю. (1998). Экономика туристского рынка. Москва: ИПКГ. – 239 с.
2. Кабушкин, Н.И. (2004). Менеджмент туризма: учебник (4-е изд., стереотип.). Минск: Новое знание. – 409 с.
3. Tuxliyev, I.S., va boshqalar. (2021). Turizm: nazariya va amaliyot (darslik). Toshkent: Fan va texnologiyalar.
4. Тураев, Б.Х. (2009). Организационно-экономические механизмы регионального туризма. Ташкент: Фан АН РУз. – С. 7.
5. Safarov, B.Sh. (2011). Mintaqaviy turizm xizmat bozori iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (iqtisod fanlari nomzodi dissertatsiyasi). – 21 b.
6. Alimova, M.T. (2017). Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) (iqtisod fanlari doktori dissertatsiyasi).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100